

Uzbekistan Airways Toshkentdan Urumchiga aviaqatnovlarni tiklamoqda

2023 26 May

Uzbekistan Airways shu yilning 30-iyunidan boshlab Toshkent – Urumchi – Toshkent yo‘nalishi bo‘yicha muntazam aviaqatnovlarni yo‘lga qo‘ymoqda. Muntazam parvozlar har hafta, juma va shanba kunlari (keying kunga o‘tuvchi reys bilan) quyidagi jadvalga muvofiq amalga oshiriladi:

Toshkentdan jo‘nash: 17:15 (Toshkent vaqti bilan)

Urumchiga yetib kelish: 22:40 (Urumchi vaqti bilan)

Urumchidan jo'nash: shanba kuni soat 00:10 (Urumchi vaqti bilan)

Toshkentga yetib kelish: shanba kuni soat 00:05 (Toshkent vaqti bilan)

Toshkent – Urumchi yo‘nalishi bo‘yicha aviachiptalar narxi 2 738 000 so‘mdan, Toshkent – Urumchi – Toshkent yo‘nalishida esa 4 867 000 so‘mdan boshlanadi.

Aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy www.uzairways.com sayti orqali 3% chegirma bilan, shuningdek, “UzAirways” mobil ilovasi, Uzbekistan Airways Sales orqali yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilishingiz mumkin.